



Fazilatlar
tug‘ma
bo‘lmaydi,
ular oilada,
tarbiyada
shakllanadi



BIZ BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

Keyingi besh yillikda ham viloyat Kengashi 60 nafar deputatdan iborat bo‘ladi

31-iyul kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi, bir yuz birinchi sessiyasi o’tkazildi.

Sessiya ishini Kengash raisi E.Turdimov boshqardi.

Shu yilning 27-oktabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlarga saylov bo‘lib o’tadi. Bu yilgi saylov mamlakatimiz saylov qonunchiliiga kiritilgan bir qator o‘zgartishlar asosida yangicha tizimda o’tkaziladi.

Shu munosabat bilan sessiyada dastlab xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidagi deputatlilik o‘rinlari sonini belgilash hamda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o’tkazish bo‘yicha bir mandatli saylov okruglarini tuzish to‘g‘risida Markaziy saylov komissiyasiga taqdimnoma kiritish haqidagi masalalar ko‘rib chiqildi.

– Saylov kodeksining 88-moddasiga ko‘ra, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi deputatlilik o‘rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan belgilanadi, – dedi ushbu masalalar yuzasidan so‘zga chiqqan deputat Sh. Jo‘raqulov. – Bunda aholi soni ikki million nafargacha bo‘lgan hududlarda – o‘ttadan qirqtogacha, ikki milliondan uch million nafargacha bo‘lgan hududlarda – qirqtadan ellitqagacha, aholi soni uch million nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda – elliktadan oltmishtagacha deputatlilik o‘rni bo‘ladi. Mazkur qoidadan kelib chiqib, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidagi deputatlilik o‘rinlari soni 60 ta etib belgilanmodqa.

Endilida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov majoritar-proporsional tizim asosida o’tkaziladi. Ya’ni, Qonunchilik palatasi deputatlarining yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, yetmish besh nafari yagona saylov okruqi bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda partiya ro‘yxati asosida saylanadi. Shu asosida viloyatda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o’tkazish bo‘yicha 8 ta bir mandatli saylov okrugini tuzish to‘g‘risida Markaziy saylov komissiyasiga taqdimnoma kiritishga qaror qilindi.

Shundan so‘ng 2024-yilning 1-yarim yilligida davlat va mahalliy budget daromadlari proqnoz ko‘rsatkichlarining ijrosi to‘g‘risida viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rnobosari Oybek Oqbo‘tayev hisobot berdi.

Qayd etilishicha, yarim yilda viloyat mahalliy budgetining xarajatlar qismi 92,5 foizga ijro etilib, 3 trillion 569,6 milliard so‘mlik xarajatlar amalga oshirilgan. Umumiy daromadlar rejasи esa 2 trillion 375,3 milliard so‘mni tashkil etib, 49,5 milliard so‘m ortiq‘i bilan bajarilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, yer va mulk solig‘i, aksiz solig‘i tushumi rejalar ortig‘i bilan bajarilgan bo‘lsa-da, yuridik shaxslar foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqa tushumlar bo‘yicha reja bajarilmagan.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan mahalliy budget tushumlari 119 foizni tashkil etgan.

Sessiyada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasasi mudiri Mamontjon Turdiyev aholi murojaatlari va muammolari bilan ishshash holati yuzasidan axborot berdi.

– Yilning birinchi yarmida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga viloyatimiz aholisidan 68,8 mingga yaqin murojaat tushgan

bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 13 foizga oshgan, – dedi M.Turdiyev. – Murojaatlarning 81 foizi qanoantantilirgan, 763 tasi rad etilgan, 212 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan. Eng ko‘p murojaat Samarqand shahri (10025 ta), Past Darg‘om (8072 ta), Urgut (5934 ta), Paxtachi (5337 ta) va Payariq (5288 ta) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda. Masalalarni ijobji hal etish, fuqarolar roziligi erishish darajasi Samarqand (29,5 foiz), Toyloq (34 foiz), Past Darg‘om (34 foiz) tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on (34 foiz) va Samarqand (34 foiz) shaharlari eng past darajada bo‘lib idi.

Sohalar bo‘yicha eng ko‘p murojaat ijo ishi, aliment va qarz undirish, elektr energiyasi va gaz ta‘minoti, pensiya va ijtimoiy ta‘minot, huquqbazarliklar haqida xabar berish bilan bog‘liq bo‘ldi. Joriy yilning yanvar-fevrallarda elektr energiyasi ta‘minot bo‘yicha respublikada eng ko‘p murojaat Samarqanddan tushgan.

Kun tartibidagi navbatdagi masha – viloyatda qayta tikanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish ijrosi yuzasidan “Samarqand hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatni raisi Umid Nazarov hisobot berdi.

– Viloyatimizning 2024-yilda elektr energiyasi iste’moli proqnozi 6,9 milliard kVt. soatni tashkil qilib, shundan 682,0 million kVt. soat elektr energiyasini iqtisod qilish rejalashtirilgan, – dedi U.Nazarov. – Bu aholi xonardonlari va tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlariga quyosh foto panelari, geliolkollektorlar o‘rnatish, 4286 ta korxonada reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish qurilmalari qo‘yish, 1197 ta transformator punkti va 3004 kilometr elektr uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ta‘mirlash, 14320 ta ko‘cha yoritish chiroqlarini akkumulyatorli-quyosh panelli va zamonaviy energo tejamkor chiroqlarga almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on tumanida quvvati 220 mVt. va Nurobod tumanida 100 mVt bo‘lgan quyosh foto elektr stansiyalari hamda Samarqand GESlar kaskadi tomonidan Toyloq tumanida mini GES qurish hisobiga 390 million kVt. soat elektr energiyasi iqtisod qilinadi.

Deputatlari Qo‘shabrot tumanini Chimmos mahallasi hududida “Alihan Organic Agro LLC” mas’uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan 2019-2024-yillarda 3,1 million AQSh dollarri miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mablag‘lari o‘zlashtrilgani uchun turkiyalik investor Ali Baklanga “Faxriy fuqaro” maqomi berish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Sessiyada yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash muddatini kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash), Samarqand, Kattaqo‘rg‘on shaharlari, Jomboy, Oqdaryo, Past Darg‘om, Bulung‘ur, Payariq, Paxtachi, Samarqand, Qo‘shabrot, Urgut, Toyloq va Nurobod tumanlaridagi samarasiz kichik sanoat zonalarini tugatish, viloyatdagi avtomobil yo‘llari, ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimi, elektr energiyasi ta‘minoti, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi, Past Darg‘om va Ixtixon tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishga doir “Yo‘l xaritas”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi va boshqa masalalar ko‘rib chiqildi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasida “mahalla yettiligi”ning yilning birinchi yarmida amalga oshirgan ishlar tahvilini hamda yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan hisobot yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozi kreditlilar ajratish, yoshlar va xotinqizlarni qo‘llab-quvvatlash, yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhujolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, hududda jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berildi.

– Viloyatimizda og‘ir mahallalarni namunalni hududlarga aylantrish bo‘yicha “Samarqand tajribasi” yaratildi, – dedi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasini boshlig‘i Sherali Yo‘lidoshev. – Bu boroda keng ko‘lamli ishlar tashkil etilib, muammollarini bartaraf etish choralar ko‘rildi. Aholi bandigini ta‘minlash hamda daromadini oshirish maqsadida hokimliklar, sektorlar, “mahalla yettiligi” va tijorat banklari hamkorligida 63 ming nafer fuqaroning



“MAHALLA YETTILIGI” OLTI OYDA QANDAY ISHLADI?

bandligi ta‘minlandi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari ga 27 ming 346 ta loyiha uchun 519,2 milliard so‘m miqdorida kredit ajratildi. 6575 nafer yoshga dehqonchilik qilishi uchun 7 ming hektar yer maydoni ajratildi.

“Sayxunobod tajribasi” dan kelib chiqib, 16 ming 557 ta xonadonna intensiv bog‘dorchilik, parrandachilik, chorvachilik, baliq, asal yetishtirish yo‘iga qo‘yildi hamda 2673 ta loyiha shakllantirildi. Har bir mahallada kamida 10 tadan mikrolyohani amalga oshirish bo‘yicha bugunga qadar 130,9 milliard so‘mlik 7464 ta mikrolyohani amal-

ga oshirish boshlandi. Yig‘ilishda “mahalla yettiligi” tomonidan yo‘l qo‘yligan kamchiliklari ham tilga olindi.

– Bugungi kunda “yettilik”ning ustuvor vazifasi – mahallani ishsizlik, jinoyatchilik, oilaviy ajrim, migratsiya hamda kambag‘allikdan xoli hududga aylantrish, – deydi boshqarma boshlig‘i o‘rbinosari Nosir Mavlakov. – Biroq mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar ustidan doimiy nazorat o‘rnatalmadi va monitoring yuritilmadi. Natijada viloyatdagи 1126 ta mahallaning 438 tsadida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l

qo‘yildi. Jumladan, Kattaqo‘rg‘on tumanida 31 ta, Narpayda 25 ta, Oqdaryo va Nurobodda 19 tadan jinoyat qayd etildi.

Yig‘ilishda ishtirok etgan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisining birinchi o‘rbinosari Javdat Inog‘omov yo‘l qo‘yligan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan “mahalla yettiligi” oldida turgan vazifalarga to‘xtaldi.

Yig‘ilishda viloyat hokimi o‘rbinoslarlari Z.Rahmonova hamda H.To‘xtayev ishtirok etdi.

B.MUSTANOV.

Bu galgi jarayon oldingilardan farq qiladi

Joriy yil 27-oktabrdan bo‘lib o‘tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlar «Menin tanlovim – obod Vatanim!» shiori ostida o‘tkaziladi.

Ushbu siyosiy jarayon avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Yangiliklarning biri shuki, barcha daramadagi saylov komissiyalari faoliyati va ularning saylov jarayonlari to‘liq raqamlashtiriladi. Endi byurokratiya va hujjalarni harakati qisqaradi.

Xususan, «E-saylov» axborot tizimida 400 mingga yaqin saylov jarayoni ishtirokchilar, jumladan, saylov komissiyalari a‘zolari, deputatlilikka nomzodlar, va kuzatuvchilarga oid katta ma‘lumotlar bazasi shakllantirilmoqda.

Axborot tizimida boshqa elektron platformalar bilan integratsiyalashgan bo‘lib, saylovda bo‘pgina tarbit-taomillar inson omilisiz avtomatlashtiriladi. Undan 32 ming nafer saylov jarayoni ishtirokchilari profesional tarzda foydalaniشadi. Foydalananuvchilar bilan 40 turdagи SMS-xabarnomalar orqali muloqot o‘rnatalindi.

Xabarlarga ko‘ra, saylov komissiyalarining siyosiy partiyalar, nomzodlar, kuzatuvchilar va ommayviy axborot vositalari bilan deyarli 60 turdagи munosabatlari to‘liq ushbu tizim orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

Tushungan bo‘lsangiz, endi saylov bilan bog‘liq masalangiz bo‘sa, uchastka yoki okrug komissiyasiga uchrashishingiz shart emas.

Bundan tashqari, mamlakat tarixida ilk marta parlament quiy palatasiga deputatlari aralash saylov tizimi orqali saylanadi. Oddiyroq aytganda Qonunchilik palatasining 150 deputatidan 75 nafer aniq shaxslar ovoz berish yo‘li bilan, qolgan 75 nafer partiyalarga berilgan ovozlar bilan (proporsional) saylanadi.

Faqat shu o‘zgarish berilayotgan har bir ovoz qanchalik qiymatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, avvalgi saylovlardan 3 ta byulletenni to‘ldirgansiz, endi ovoz berayotganingizda uchastka saylov komissiyasi 4 ta byulleten beradi.

Shu o‘rinda yana bir o‘zgarish haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Negaki, rasmisida tilda saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga moslashtiriladi, devilayotgan bu yangilik ham jarayonda muhim ahamiyatga ega. Zotan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy qilindi.

Ilgarigidek, endi har bir siyosiy jarayon uchun alohida komissiya tashkil qilinmaydi. Birgina viloyat komissiyasida aval bitta doimiy asosida ishlovchi a‘zosi bo‘lgani holda, endi ikki nafer xodim budjetdani ish haqni oladigan bo‘ldi. Ular Kengash vakolat muddati tugagunga qadar, ya’ni besh yil davomida faoliyat olib boradi.

Yana bir gap. Saylovarda nomzodlarning saylanishi uchun nisbiy ko‘plik ovozini olish belgilandi. Unga ko‘ra, nomzod saylov okrugida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz to‘plagan taqdirda deputat bo‘ladi.

Avvalgi saylovarda 50+ sxemasi ishlaganini va ayrim hollarda nomzodlardan hech biri ovoz berganlarning yarmidan ko‘p ovozni ololmagani uchun takroriy ovoz berish o‘tkazilgan okruglar haqida

**SAYLOV
2024
27-OKTABR**

MENING TANLOVIM — OBOD VATANI

bilasiz. Kiritilgan yangilik bunday ovozagarchiliklarning oldini oladi.

Haliyam saylov men uchun qiziq emas, degan fikrda bo‘lsangiz, davomini o‘qing. Chunki, bu galgi saylovda deputat bo‘lganlar avvalgilardan ko‘ra, ko‘proq vakolatlarga ega bo‘ladi.

Jumladan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Sedatda esa 12 tadan 18 taga ko‘payitridi.

Yangi tarkibdagi xalq deputatlari viloyat Kengashiga viloyat hokimi rahbarlik qilmaydi. Avval hokim vakolatida bo‘lgan 33 ta vakolat mahalliy Kengashlarga o‘tkaz



↓ Dastur amalda

Mahallalarda IT mutaxassislari ko'payadi

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida joriy yilning 1-martidan boshlab "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" dasturi joriy etilishi belgilangan edi. Xo'sh, u qanday amalga oshirilyapti? Yosh dasturchilar qayerda o'qitildi?

Dasturga ko'ra, birinchi bosqichda joylardagi yoshlar yetakchilari mahallalarda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlar aniqlanib, ularni IT va xorijiy tillarni o'rorganishga yo'naltirishi kerak. O'qishni tugatib, tegishli sertifikatni olgan yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar Raqamlari texnologiyalar vazirligining maxsus axborot tizimiga kiritiladi hamda kambag'allikni qisqartirish va bandilg'i vazirligi tonmagan IT sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga yo'naltirilib, ishga joylashtirishda ko'maklashiladi.

— Hozirgacha 685 nafar samarqandli yigit-qizlar barcha xarajatlari qoplangan holda IT va xorijiy tillar bo'yicha o'qitildi, - deydi yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi bosh mutaxassis Shahzoda Hamidova. — Yana 80 nafar "School 21" raqamli texnologiyalar maktabiga o'qishga kirgan. Bundan tashqari, ko'plab yoshlarimiz "Kelaikasblari" loyihasi, "Ibrat farzandlari" platformalarida ta'lim olyapti. Bir so'z bilan aytganda, dastur ijrosi bo'yicha ishlar boshlangan va natija ham uzoq kuttirib qo'yaydi.

— Mahalla yoshlari o'tasida birinchi bor so'rov o'tkazganimda 5 nafari IT yo'nalihsasi o'qish istagini bildirdi, - deydi Toyloq tumanidagi Charog'bon mahallasi yoshlar yetakchisi Murodjon Farmonov. — Keyin ular uchun yaxshi o'quv markazini qidirdim. Samarqand shahrida ochilgan "School 21" maktabida bo'lib, tajriba tariqasida o'zim ham unda bir haftacha o'qidim. Sharoit va o'qitish texnologiyasi ma'qul kelgach, yoshlarni olib keldim. Hozir ularning 4 nafari shu yerda o'qimoqda. Keyingi qabul uchun yana 3 nafar nomzodim bor. "School 21" raqamli texnologiyalar

Asqar BAROTOV,
"Zarafshon" muxbiri.

Kimsasiz yer osti o'tish yo'lagi

jarimaga tortilmaslik uchun farzandini tashlab ketgan ona...

Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan press-turda ana shunday voqealarning guvohi bo'ldik.

Yo'l-transport hodisalari nisbatan ko'p sodir bo'layotgan hududlarni o'rganish, buning sabablarini muhokama qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan tadborda ommayvi axborot vositalari vaqtilariga boshqarma boshlig'i Shavkat Boyxo'rozov hamda shahar infratuzilmasiga mas'ul idora rahbar-xodimlari hamrohlilik qildi.

Birinchi manzil Samarqand shahrining eng muammoli chorrahasi hisoblangan Dahbed va Rudakiy ko'chalari kesishmasi bo'ldi. Ta'kidlanganidek, hududdagi bekatlar chorrahaga yaqin joylashganligi sababi transport harakati qiyinlashmoqda. Jamoat transporti ham, kirakashlar ham shu bekatlarga to'xtab, yo'luchchi olishga harakat qiladi, oqibatda hudduda tartibtashish yuzaga keladi.

Rudakiy ko'chasini kesib o'tgan yer osti piyodalar yo'lagidan ham lozim darajada foydalainilmay kelinmoqda. Tadbir ishtirokchilarini uning holatini ko'zdan kechirganda inshootda yoritish chiroqlari yo'qligi, nazoratsiz qoldirilgan hojatxonadan badbo'y hid taralayotgani aniq bo'ldi. Albatta, bunday muhit hech kimga yoqmaydi. Oqibatda piyodalar qorong'u, badbo'y yo'lakka tushishdan ko'ra, ko'chani belgilanmagan joydan kesib o'tishni ma'qul ko'romoqda. Yerosti yo'liga kirish qismi esa kirakashlar tomonidan avtoturargoh sifatida egalab olingan.



ligiga mazkur hudud va shaharning boshqa ko'chalaridagi muammolarni bartaraf etish va yo'l harakati qatnashchilariga xavfsiz sharoit yaratish bo'yicha taqdimnomalar kiritib borilmoqda. Shuningdek, yangi loyhilar o'r ganilib, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar berilyapti. Keyingi marzil - Siyob dehqon bozoriga olib boruvchi ko'prik ostidagi vaziyat boshqacharoq. Bunda yo'lchilariga ko'prik ustidan o'tish uchun zarur sharoit yaratilgan, uning ostidagi ko'chaning ikki qatnon qismi esa temir panjaralar bilan to'sigan. Shunday bo'lsa-da, piyodalar xavfsiz yo'ldan yurmay, temir panjaralarni hatlab o'tmoqda. Bunga o'sha joyda guvoh ham bo'ldik. Jumladan, bir ayol ikki farzandini panjaralar orasidan o'tkazib, o'zi o'tishga ulgurmay, ichki ishlar idoralari xodimlarini ko'rib qoldi va bolalarini shu yerda qoldirib. Bu

qanday mas'uliyatsizlik? 150-200 metr yurmaslik uchun bolalarning hayotini xavf ostiga qo'yishga cha borayotgan ekamini, vaziyat juda yomon.

Biz shu yerdaligimizda atrofdagi yig'ilganlar orasida temir panjaralarni olib tashlash kerakligi, mas'ullar atay odamlarning harakatlanishini qiyinlashtrigani aytib baqirganlar bo'ldi. Kuzatib bildikki, bu "faol"arning asosiy qismi shu yerdagi sotuvchi va kirakashlar. Ularga bir yilda nechta bola yo'l-transport hodisasi qurban bo'layotgani, qancha odam mayib-majruh bo'layotgani qiziq emas, asosiysi daromadni oshirish.

— Bu tadbirdan maqsad yo'llardagi xavfsizlikni ta'minlash faqat bizga bog'liq emasligini, jarayonda hamkorlik zarurligini tushuntirish, - deydi Sh.Boyxo'rozov. — Hozir viloyat bo'yicha 284 nafar post-patrol xizmati xodimi xizmat olib bormoqda. Holbuki, mahallalarimizning o'zi mingdan ortiq, ko'chalar esa undan ham ko'p. Bir so'z bilan aytganda, biz hamma narsani nazorat qila olmaymiz. Qolaversa, faqat jazolash orqali kerakli natijaga erishish qiyin. Muammoni joylarda zarur infratuzilmani yaratish, kamchiliklarni to'g'rilash hamda eng muhimmi, jamoatchilikda yo'llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirish orqali hal qilish mumkin. Bunga erishsak, nazoratga talab kamayadi. Misol uchun, Germaniyada shunday tajriba qo'llaniladi. Albatta, bu jarayon samaradorligi ko'p jihatdan jurnalist va blogerlarning faolligiga bog'liq. Biz o'z navbatida ular bilan yaqin hamkorlik qilishga doimo tayyormiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqanddagi ilk sveto-for 1950-yilda o'rnatilgan. Oradan 74 yil o'tib ham unga amal qilishni o'rganmaganligimiz, qoidalarni pisand qilmasligimiz, qolaversa, turizm shahri bo'lgan Samarqandda haydovchiyu piyodalarining xavfsiz harakatlanishi uchun zarur infratuzilmaning yetarli emasligi achinrali hol.

Press-tur yakunlandi, lekin biz bu mavzuga hali yana qaytamiz.

Yirik olim va davlat arbobi

Bu ikki ulkan yuk mas'uliyatini sharaf bilan ado etayotgan Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov 1949-yilda Samarcand shahrida tavallud topgan.

Ayni damda Oliy Majlis Senati a'zosi hamda texnika fanlari doktori bo'lgan R.Xolmurodov Sian Jiatong (Xitoy), Boyazid Yildirim (Turkiya) hamda Moskva davlat (Rossiya) universitetlarining faxriy professori.

R.Xolmurodov 1972-yil Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutini tugatgan. Mehnat faoliyatini 1977-yil Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti temirbeton va tosh qurilmalari kafedrasi assistenti, katta o'qituvchisi vazifasidan boshlab, 8-yil instituta rektorlik qilgan.

1997-1999-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinnbosari, 2003-2004-yillarda Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida ishlagan.

Bundan tashqari, 1999-2004-yillarda



↓ Davr fidoyilar

Ishtixon tumanidan Oliy Majlis deputati bo'lgan.

2016-yildan Samarqand davlat universiteti rektori.

Universiteda R.Xolmurodov tashabbusi bilan bugungi kun talabalaridan kelib chiqib, o'ndan ortiq yangi ta'limga muassasalarini tajribalarini o'rganish asosida o'quv reja va fan dasturlari yangidan shakllantirilgan va bunda potensial ish beruvchilarning takliflari inobatga olingan.

Universitet xalqaro QS Stars reytingida 5 yulduzli maqomga ega bo'lishida ham R.Xolmurodovning xizmatlari beqiyos.

Rustam Xolmurodov 2017-yil "El-yurt hummati" ordeni, 2022-yil "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvonini bilan mukofotlangan.

2022-yilda ikki yil muddatga Osiyo universitetlari assotsiatsiyasi prezidenti etib saylangan.

↓ Huquqiy savodxonlik

Vasiyga bola parvarishlash uchun ta'til beriladimi?



Xodim yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki una vasiy qilib belgilangan, bola parvarishlash ta'tili olish asosi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida keltirilgan. Jumladan, mazkur kodeksning 406-moddasiga asosan, yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki una vasiy qilib belgilangan xodimga bola farzandlikka olingen yoki vasiylik belgilangan kundan boshlab va bola tug'ilgan kundan e'tiboran elliq olti kalendar kun (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq bola farzandlikka olingen taqdirda esa yetmish kalendar kun) o'tguniga qadar qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh

foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'langan holda ta'til beriladi.

Shuningdek, yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki una vasiy qilib belgilangan xodimning yozma arizasiga ko'ra, xodimga bola ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili berilib, ushbu davr uchun

Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi, shuningdek, bola uch yoshga to'lguniga qadar ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham berilishi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilishimiz mumkinki, bolani farzandlikka olgan yoki una vasiy qilib belgilangan xodimga bola farzandlikka olingen yoki vasiylik belgilangan kundan boshlab va bola tug'ilgan kundan e'tiboran elliq olti kalendar kun (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq bola farzandlikka olingen taqdirda esa yetmish kalendar kun) o'tguniga qadar qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh

Jahongir MAMADIYOROV,
Samarqand tumani
adliya bo'limi yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti.

Qo'shrabot tumaniga olib boradigan "Mitan-Qo'shrabot-Nurota" avtomobil yo'lining uzunligi 75 kilometrni tashkil etadi. Mazkr yo'Ining aksariyat qismi ta'mortalab edi. Shu yilning iyul oyidan boshlab respublika budjetidan ajratilgan 4,5 milliard so'm mablag' hisobidan yo'Ining Shovona mahallasi hududidagi ta'mortalab 9-15 kilometr qismi tekislani, asfalt qilinmoqda.

Qo'shrabotda qaysi yo'llar asfalt qilinyapti?



- Qishlog'imizdan Mitan shaharchasiga yoki tuman markaziga borish uchun shu yo'ldan o'tishga to'g'ri keladi, - deydi Ishtixon tumanining Zarband qishlog'ida yashovchi Rustam Turumboyev. - Biroq yo'Ining torligi va o'ydym-chuqurligidan o'tib bo'lmash holatga kelib qolgan edi. Yangi mashinalar ham tezda ta'mortalab bo'lib, qishda yer muzlagan vaqtida umuman o'tib bo'lmay qoladi.

Tumanning Shovona mahallasiidan o'tgan 9-15 kilometri butunlay ta'mortalab ahvolga kelib qolgan edi.

- Yo'l har yili qisman yamalaverGANidan haydovchi va yo'lovchilardan murojaatlar ko'payib ketgandi, - deydi Qo'shrabot tumani yo'llardan foydalish korxonasi davlat muassasasi bo'lim boshlig'i Ismoil Xidirov. - Joriy yilgi davlat dasturiga asosan, mazkur avtomobil yo'lining eni 7 metrning 9 metrgacha kengaytilmoqda. Hozirgacha rejadagi 6 kilometr yo'Ining 2 kilometrida asfaltlash ishlari yakunlandi. Ishchilarimiz tomonidan kuniga 250-300 metr masofada yo'l asfaltlanmoqda.

Yo'Ining bir tomonidan piyodalar yo'lagi ham qurilmoqda. Hududdagi noqonunyu qurilmalar olib tashlanib, savdo da'onklari va maishi yizmat ko'rsatish shoxobchalar ichkariga oliniyapti.

- Shu paytgacha asfalt Samarqand shahridan tashib kelinar va ancha qimmatga tushar edi, - deya ma'lumot berdi tuman yo'llardan foydalish korxonasi davlat muassasasi boshlig'i Asqar Turonov tumanda yo'llarni asfalt qilish holati bo'yicha tashkil etilgan press-tur ishtirokchilariga. - Yaqinda tumanidagi Do'stlik mahallasiida asfalt ishlab chiqarish korxonasi faoliyat boshladi. Ayni kunlarda korxonada kuniga o'rtacha 500-600 tonna asfalt ishlab chiqilmoqda.



Ushbu avtomobil yo'lining ta'mirlash ishlari shu yilning sentabr oyida yakuniga yetkazish rejalashtirilgan.

**Dilmurod TO'XTAYEV,
Fayoz NIZOMOV olib suratlar.**

Zamonaviy islohotlar xalqimizning ongi va ruhiyatida ham yangicha dunyoqarashni shakkantirmoqda. Boqimandalik kayfiyatining o'rnnini ishchanlik, ishbilarmonlik ruhiyati egallamoqda. Yoshlar orasida iqtisodiy bilimlarga qiziqish kuchaymoqda. Bas shunday ekan, biz iqtisodiyot ilmini, uning taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk ajdodalarimiz qarashlarini o'quvchilar ongiga singdirishimiz kerak.



O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga - birinchi (ma'rifiy - IX-XII asrlar) va ikkinchi (temuriylar - XIV-XV asrlar) Renessanslarga beshik bo'lgan.

Birinchi Renessansda iqtisodiy faoliyat islomga asoslangan. Bu davrda asosiy qarashlar Qur'oni karim va hadisi shariflardagi iqtisodiy g'oyalarni o'zida aks ettigani. Jumladan, Qur'oni karim va hadislar savdogra, uni halol va adolatlari yuritishga, savdo va tijoratdan toyda olishga, insofini unutmaslikka chaqirilgan. Shuningdek, sudxo'rlikka, boshqalar rizqiga xuruj qilishdan qaytarilgan. Qur'oni karimda va payg'ambarimiz hadislarida ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan biri - iste'mol me'yori, iste'mol chegarasi va madaniyati masalasıdır. Ularda qayd qilinadi, Alloh taolo bandalariga dunyodagi barcha noz-e'matlarni iste'mol qilishlari, farovon va to'q hayot kechirishlarini tashkil qilishlari uchun in'om etgan. Alloh taolo Qur'oni karimda: "Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar. Zero, U isrof qilguvchilarni sevmas" (A'rof, 31), deb yitgan.

Keyinchalik arab xalifaligining iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlanganligi natijasida markaziy shaharlarda ilm-ma'rifikat va ma'naviy madaniyatning gullab-yash-

ISROFGA YO'L QO'YMASLIK

AJDODLARIMIZDAN MEROS IQTISODIY TA'LIMOT



nashi uchun sharoit yaratildi. Islom iqtisodiy g'oyalari Markazi Osiyo allomalarining iqtisodiy tafakkuri rivoji manbai bo'lib goldi. Bu davr hukmdorlari davlat boshqaruvida iqtidori olimlarni jaib etishi bilan ajarilib turadi. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr Farobi, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Nizomul-Mulk kabi Sharq allomalar o'z davrining davlat boshqaruvida nufuzli o'ringa ega bo'lib, iqtisodiyot, qishloq

xo'jaligini yuritish bo'yicha maslahatlar bilan mammakat ravnaqiga sezilari hissa qo'shgan. Jumladan, Abu Nasr Farobi iqtisodiyotning muhim tushunchasi bo'lgan ehtiyojlarni masalasiga alohida e'tibor berib, ehtiyojlarni qondirish inson harakatining markazida turajagini aytadi. U inson ehtiyojlarni qondirishda mehnat va mehnat qurollarining o'rni beqiyos ekanligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari"da agar hayvonlar tayyor tabiat ne'matlarini o'zlashtirib olsa, odamlar o'z mehnat bilan o'ziga ovqat, kiyim-bosh, uy-joy yaratadi. Ular ana shu maqsadda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi, deydi. Shuning uchun alloma odamlarni ijtimoiy foydalni mehnatga chorlaydi. Yusuf Xos Hojib asarlarda mehnatga to'g'ri haq to'lash, boshqalar mehnatinning qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o'rinn berilgan. U "Qutadg'u bilig" asarida odamlarni hunar o'rganishga chaqiradi, hunar o'rganmaslik tubanlik belgisidir, degan fikri ilgari suradi.

Mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrda Markazi Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti Amir Temur

nomi bilan bog'liq. Aynan temuriylar davri ikkinchi Renessansa beshik bo'lgan. Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan. Unda Sohibqironning mamlakatni boshqarish, uni rivojlanitrib borish qoidalar, tamoyillari, yo'l-yo'riqlari o'z ifodasini topgan.

Asarda iqtisodiyotni tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib borish, uni barqaror sur'atlar bilan yuksaltirishga oid iqtisodiy tavsiyalar jamlangan. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini va tijoratishlari bilan mashg'ul bo'luchilarga yetarli sarmoya va uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi. "Temur tuzuklari" asarini o'rganish shuni ko'sratadiki, Amir Temurning iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi markaziy o'rinn tutadi. Sohibqiron o'z soliq siyosatida xalqning manfaatini ustun qo'yadi. Agar aholi davlatning soliq tizimi orqali kambag'allashib ketsa, davlat ham oqibatda kambag'allashib boradi, aholining boy-bavdat yashamog'i uchun adolatli soliq tizimi zarur, deb hisoblaydi. Amir Temur iqtisodiy siyosati oddiy mehnatkash xalq manfaatlarini bilan sug'orilgan siyosat edi. Bunday siyosat dunyoda iqtisodiy va harbiy jihatdan eng quradli davlat tuzilishiga olib keldi.

Mirzo Ulug'bek ham bobosi Amir Temur vasiyatları, uning ko'rsatmalariga amal qildi. U shunday iqtisodiy o'zgarishlar qildiki, bular oqibatida iqtisodiy inqirozlarining oldi olinib, davlat quradri yuksak darajaga ko'tarildi. Uning soliqlarni tartibga solish va pul muomalasini barqarorlashtirish, pulning qadrsizlanishiga

yo'l qo'ymaslik uchun kurash chora-tadbirlari tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, u xirojning miqdorini belgilashda tabaqalashtirish yo'lini tutdi, ya'ni xirojni yerning shart-sharoiti, unumdarligi, bozorlarga ya-qin-uzoqligi kabi omillarga qarab belgiladi. Iqtisodiy ilmining hozirgi tushunchasi bilan aytganda, yer rentasi ta'lomitini asoslashga harakat qildi.

Ikkinci Renessans davrining yana bir vakili Alisher Navoiy iqtisodiy qarashlari "Mahbub-ul-qulub" ("Qalb sevgilisi") asarida bayon qilingan.

Insoniyat doimo ijtimoiy adolat tanoyillari o'rnating demokratik jamiyat qurishni orzu qilib keladi. Alisher Navoiy ham o'zining butun faoliyatini mazkur umuminsoni maqsadga qaratgan edi. U iqtisodiyotning muhim jihatni mulk, ish haqi masalasiga e'tiborni qaratdi. U mulknki to'g'ri tasarruf etish, resurslar, iqtisodiy shart-sharoitdardan umumli foydalanish, isrof-garchilikka yo'l qo'ymaslik kerak, deydi. Ana shunda odamlar to'q va farovon yashashi mumkinligi haqidagi iqtisodiy qarashni ilgari suradi. "Isrof qilish saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqli odamlar saxiylik demas", deb yozadi alloma.

Uchinchil Renessans poydevorini yaratishda oldindagi Uyg'onish davrni namoyandalarining tajribasi va boy merosini o'rganish, jumladan, iqtisodiyotga ta-



alluqli ta'lomitlarini amaliyotda qo'llash kerak. Iqtisodiyotni rivojlanitishda mamlakatimiz boyliklarini isrof qilmay ishlatish, ularni kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishni o'yashimiz lozim. Bunday sharoita o'tmishtagi buyuk olimlarimizning g'oyalari asoslanib, iqtisodiyotni tashkil etsak, yuksak kelajak, farovon davlat, buyuk Vatan egasi bo'lismiz shubhasiz.

Olim MURTAZOEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali direktori, professor.
Hasan TURDIBEKOV,
filial direktorining birinchi o'rinosari.

t

TANLOVDA QATNASHING!

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA VAKANT LAVOZIMLARGA TANLOV E'LNQ QILADI

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasiga (tarix fani mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

2. Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasiga (falsafa fani mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

3. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga (1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

4. Rus tili va adabiyoti kafedrasiga (1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

5. Xorijiy tillar kafedrasiga (Ingliz tili o'qituvchisi, 1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

6. Maktabgacha ta'lim kafedrasiga (1 shtat birligida) 1 ta o'rin;

7. Pedagogika kafedrasiga (1 ta o'zbek, 1 ta rus va 1 ta tojik guruhlari uchun, 1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

8. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasiga (1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

9. Psixologiya kafedrasiga (1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

10. Matematika va informatika kafedrasiga (matematika fani mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 3 ta o'rin;

11. Matematika va informatika kafedrasiga (informatika fani mutaxassisligi bo'yicha 1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

12. Fizika-astronomiya kafedrasiga (fizika mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

13. Kimyo kafedrasiga (rus, tojik guruhlar

uchun, 1 shtat birligida) 2 ta o'rin;

14. Biologiya va geografiya kafedrasiga (biologiya mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 1 ta o'rin;

15. Biologiya va geografiya kafedrasiga (geografiya mutaxassisligi bo'yicha, 1 shtat birligida) 1 ta o'rin.

TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILADI:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varoqa;
- oliy ma'lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalar;
- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;

- ilmiy va uslubiy ishlarning ro'yxati;
- malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma;

- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa).

Ishga qabul qilishda talabgorlar magistratura bosqichini yakunlagan, soha bo'yicha yetuk mutaxassis va pedagogik mahoratga ega bo'lishlari kerak. Tanlov test va suhbat asosida tashkil etiladi.

Xorijiy tillar bo'yicha sertifikatga ega, PhD yoki DSc ilmiy darajasiga ega, dotsent yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan talabgorlarga ustunlik beriladi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Raxmatullayeva Hamro Abdullaevnaga (2018-yil 31-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Radjabaliyev Alisher Ravshanovichga (2020-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Fayziyev Sadi Ziyayevichga (1995-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Kattaqo'rg'on shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasida marhum Gulamov Talatga (2011-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Kattaqo'rg'on shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 148-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Mallayev Umarga (2002-yil 12-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Kaxarov Vaxidga (1979-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Joniqulov Xudoyberdiga (2021-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Butayeva Karshigulga (2019-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan

GIPERTONIYA KASALLIK EMAS!

Atrofqa qarasang 40 yoshdan oshgan aholining, lof bo'lsa ham, har ikkisidan biri qon bosimi dan shikoyat qiladi. Va natijada nafaqat shifokorlar, balki aholining o'zida ham bu kasallikka qarshi o'z "davo usul"lari paydo bo'la boshladи. Bu usullarni bir-biriga tavsya qilgan holda, shifokorsiz davolanishga o'tayotganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, o'nlab shogirdlarning ustozi Rustam Samiboyev malakali tajribaga ega shifokorlardan. Bu kamtarin shifokor do'stim bilan salomatlik to'g'risida ko'p muloqot qilganmiz va har gal undan tibbiyot masalasida yangicha ma'lumotlar olganman. Shu suhbatlarimizdan biri borib-borib ko'pchilikni qiyayotgan gipertoniya xastaligiga bog'landi. To'g'risi, shifokorning bu boradagi fikrлari meni qiziqtirib qo'ydi. Nazarimda, ushbu ilmiy xulosha va qarashlar, tavsiyalar sizga ham asqotadi, degan maqsadda ularni qog'ozga tushirdim.

- Rustam Matlubovich, hozirgi vaqtida 35-40 yosh dan keyin ko'pchilik qon bosimini nazorat qilish, vrachlar esa uni pasaytirishga yoki ko'tarishga dori yozib berish bilan ovora bo'lib qoldi. Bu nima, gipertoniya ning oqibatlarimi?

- Suhbatimiz avvalida ko'nglimdagи bir dardimni aytil olsam. Juda ko'p kasallikkarda illatdan tabletkalar emas, balki umurtqani "ta'mirlash" orqali xalos bo'lamic. Taassufi, ba'zi vrachlar kasallik sababidan ko'ra uning belgilarini bartaraf etish bilan ovora.

Endi savolningiza o'tsak. Gipertoniya aslida kasallik emas. Uning kelib chiqish sababları ilmi shifokorga ma'lum. Ming afsuski, tajriba bu holatni barcha hamkasblarni ham bilmasligini ko'rsatayti. Demak, bu borada ayrim vrachlar nuqtai nazarini o'zgartirishimiz, muolaja tizimini qayta ko'rib chiqishimiz zarur.

- Masalan, aytaylik, bosh og'rig'iда, bosh aylanishi da, baland qon bosimida yoki uyqusizlikda dori ichish shart emasmi?

- Gipertoniya (qon bosimi oshish)ning asosiy sababi umurta osteokondrozidir. Bunda qon tomirlarining qisilishi oqibatida bosh og'rig'i, bosh aylanishi, qulqoq shang'ilashshi, uyqudagi beoromlik, xotira va ko'rish bilan bog'liq belgilar paydo bo'ladi.

Takror bo'lsa ham aytamani: gipertoniya bu kasallik emas. Men bu bilan qon bosimi ko'tarilganda e'tibor bermaslik kerak, demoqchi emasman. Bunday holda, hatto, oddiy qorin og'rig'i da ham malakali shifokorga murojaat qilish zarur.

- Agar e'tibor qilayotgan bo'lsangiz, endilika davolashning turlari shunchalik ko'paydi, hatto ularning ayrimlari vrach ish uslubini ham o'zgartirishga erishdi. Demoqchimanki, gipertoniyaning davosi yana o'sha medikamentozlik, ya'ni dori bilan davolash bo'lib qoladimi yoki zamonaiviy preparatlar va usullar yordamga keladimi?

- Shuni aytish lozimki, ba'zan qon bosimi yuqori bo'ganda ham odam o'zini yaxshi sezadi, biroq ko'pincha insult bo'ladi. Shifokorlar kasallik boshidayoq qon bosimi ni tushirishga harakat qilishadi. Ammo, keling, bir narsani aniqlashga harakat qilaylik: gipertoniya o'zi qayerdan paydo bo'ladi? Bu illat yosh bilan, yoshlarda esa u nasldan o'tgan miylik bilan bog'liq.

Katta ishonch bilan aytaylo amalmanki, hozirgi paytda shifokorga o'z vaqtida murojaat qilgan mijoz uning huzuridan butunlay sog'ayib ketishi kerak. Endilika mijozni kollegial o'rganish sharoit bor. Umurtqada har xil ko'rinishli kasallikkarni o'rganish va davolashda esa albatta, malakali nevrolig ishtirok etishi shart. Chunki aksariyat dorilar toksik ta'sirga ega, shuning uchun vijdoni shifokor bu ta'sirni kamaytirish choralarini ko'radi. Umuman, tibbiyotdagi yangi ilmiy yo'nalishlar bemorni darddan forig' qilish barobarida uning umumiyoq avholini ham yaxshiyaldi.

- Demak, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy yo'nalishlar muolaja sifatini yaxshilayti, shundaymi?

- To'g'ri, bugungi kunda tibbiyotning u yoki bu sohasi bo'yicha tadqiqot qilgan, dissertatsiya yoplaganlar mijozga yordam berdim, deb o'yashadi. Aslida unday emas. Bunday tadqiqotlar qoidaga ko'ra, davolashning to'g'ri yo'lini, ma'lumotlari tanlashta xizmat qiladi.

- Biza ana shunday ilmiy yo'nalishlar mavjudmi?

- Bor, keyingi yillarda xalqaro ilmiy markazlar bilan aloqalar yo'iga qo'yilgach, ular ancha ko'paydi. Ammo men bunga TO'G'RILIK, ADOLAT, HALOLLIK degan tushunchalarni ham qo'shishni istardim. Mijoz shifokordagi ana shu fazillatlarni ko'rishi, sezishi shart! Shifokor har qancha iqtidorli, tajribali, obro'yi baland bo'lmashin, tahlilda, muolaja chog'ida agar unda xolislik va aniqlik bo'limasa, natijaga erisha olmaydi. O'zini oqlash va karyerasi uchun yolg'on etishiga majbur bo'ladi.

Fe'l og'ir, shuhratga uchgan va manman vrachlar hamma davrda bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Ular tibbiyotdagi eng muhim qoidani - kasallik inson ruhiyatidan, tarbiyasi, holatid kelib chiqishini va uni davolash uchun bermoga ayan ruhiy ta'sir o'tkazish zarurligini tushunib yetishmaydi yoki tushunishni istashmaydi. Binobarin, terapevt mijozini davolagan bilan ruhiy muammo yechilmay soladi, demak, vaqt o'tib, kasallik yana qo'zg'ashi mumkin. Hayotiy tajriba bunday holatlar mavjudligini ko'rsatib turidi. Darvoqe, fidoyi va halol vrach o'z mijozlari uchun chinakam ruhshunos bo'la oladi.

- Tibbiyotda juda ommalashgan yana bir holat bo'yicha Sizning munosabatingizni bilmochki edim.

Tashxis qo'yish uchun hamma vrachlar bemorni MRT va KT uskunasidan o'tib kelishga yuboradi, ba'zan



bunday uskunadan ikki, uch marta o'tganlar ham bor. Aytинг-chi, bunday tekshiruv zararli yoki ortiqcha ham bo'lishi mumkinmi?

- Yashirmayman, bizda deyarli barcha kasallikkarda MRT, KT tashxisi qo'yishning asosiy usuli sifatida shakllangan. Haqiqatani ham ularning suratlarini ko'rgach, har qanday vrach ham boshqacha diagnoz qo'yishdan tuyiladi. Ularning zarari haqida gapirishga hech kim jasorat qilmaydi. Vaholanki, 2009-yilda AQSh da bunday tadqiqotlarinijida inson organizmida nurdan kuyish holati aniqlangan. Lekin bir narsaga ishonchim komil: ilmlи, farosatli va to'g'ri fikrlovchi shifokor mijoz hayoti va holatini atroficha o'rgansa, tashxismi aniq qo'ya oladi.

- Rustam Matlubovich, baribir tan olish kerak, gipertoniya va asab kasallikkarni davolashda vrachlarining ko'plabi dori-darmonlarni tavsya qilishi an'ana tusiga kirgan.

- Gapingiz to'g'ri. Tavsya qilayotgan ana shu dori-darmonlarning ayrimlari test qilinmagan, ya'ni o'sha organizmda sinovdan o'tkazilmagan. Bu esa boshqa bir organizmga yomon ta'sir qilishi, ayrimlarda dorilarga ko'nika hosil qilishi mumkin. Bunday holda har bir shifokor maqsadli terapiyaga, sodda qilib aytganda, har bir muolajasining samara va zararini biliш qoidasiga rioya etishi shart.

Daryoga cho'kayotgan kishi xasga ham umid bilan yopishi, degan naqil bor. Bu bejiz aytilmagan. O'zini chorasis sezgan mijoz dardidan qutilish uchun har qanday muolaja belgilagan vrachga ishonadi, unga ixlos qiladi. Vaholanki, tibbyotning oltin qoidasi bor: yoshi katta kishiga uchtdan ortiq dor yozib berish mumkin emas. Ba'zi hamkasblarimiz esa 10-12 tabacha dori yozib, ayrim bemornlarni unga o'rgatish qo'yishapti. Tabiiyki, bunday paytda doridan pul qilishga mukkasidan ketgan tibbiy firmalar, dorixonha egalari bilan vrachning tili bir emasni, degan fikrga borasan.

Bunday noxush holatlar, xabarizing bor, mamlakat Prezidenti darajasida muhokama etildi. Viloyat hokimi E.Turdimov ham tibbiyot sohasi xodimlari bilan muloqotda bu kabi salbiy ko'rinishlarni oqib tashladi. Ming afsuski, faqat insof, vijdoni bor shifokorlaringa bu yo'nalishda o'zgaryapti.

Asab kasallikkarni davolashdagi yangi uslubning mohiyati shuki, faqat kerakli joyga, yetarli miqdordagina dori yuborishdir. Buni hamkasbimiz Petr Sokov "mergancha ukol" deb atagan.

Umuman, vrachning asosiy vazifasi unga ishongan mijozning dardini yengillatish, yaxshi so'z, uzoqni ko'zlagan muolajasi bilan ushbu darddan butunlay qutilib ketishiga yordam berishdir. Binobarin, bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino naqafat tib qonunlari haqida, balki tabibning mahorat va burchi haqida shu qadar ulug' so'zlarni meros qilib qoldirgani, ularni o'qigan va uqqan har qanday shifokor o'z zimmasidagi mas'uliyatni chuquq his etadi. Muhimi, vrach o'z ichidagi o'zligini yo'qotmasligi zarur.

Suhbatdosh: Farmon TOSHEV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 674 nusxada chop etildi. Buyurtma 399. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshnabi, payshamba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIBMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.



INNOVATION texnologiyalarni o'zimiz yaratishimiz kerak

Bugungi globallashgan sharoitda mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ta'lim sifatini oshirish va tarbiyining uyg'unligini ta'minlash barobarida, xotirani charxlab borish ham zarurtaga aylandi.

Agar inson xotirasi ikki barobarga oshsa, maktab ta'limi 11 yildan 5 yilga qisqarsi mumkin. Shu qisqa davrda har qanday o'quvchi tegishli ilmiy egallab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim tizimida muddat unchalik ahamiyatli emas.

Vaqting qisqarishi byujdetdan ta'limga ajratiladigan xarajatlarni keskin qisqartiradi. Misol uchun, 2024-yilda ta'lim tizimiga ajratilgan 46 trillion so'm 23 trillion so'mga, maktab qurilishlariga ketadigan 26 trillion so'm, 13 trillion so'mga qisqaradi. Shu tariqa jarayon takomillashib, ta'lim tizimi budgetga, jamiyatga daromad keltiradi.

Bugun inson kapitalini aqliy kapitalga aylantirish masalasi ham o'ta dolzarb. Bu esa aqli-zakovatni o'striradigan ta'limni joriy qilishni taqozga etadi. Agar ushbu tadbir amalga oshirilsa, an'anaviy mehnat unumdonligi o'rniga aqliy mehnat unumdonligi oshadi. Bu ko'rsatkich innovatsion g'oya, startap, IT va dasturiy mahsulotlarda o'z ifodasini topadi. Jamiyatda intellektual salohiyatlari odamlarning ulushi ko'payadi.

Bu borada Yaponiya, Xitoy, Singapur, Finlandiya, Germaniya kabi ta'lim sohasida ilg'or davlatlar tajribalarini o'rganish jarayonida tug'ilgan tavsiyalarimizni o'rtoqlashishni lozim topdik.

Avalo, ta'lim jarayonida tarbiyaga alohida ahamiyat berish lozim. Bunda qadriyatlarimizga tayangan holda yoshlarga imon-e'tiqoddan saboq berish hamda ular ongiqa zamonaiviy ilg'or texnologiyalar, bilimlarni singdirishga qaratilgan fanlarni yaratish maqsadga muvofiq. Chunki ajodolarimiz renessanslarga birinchiga galda, Qur'on karimmi to'liq o'rganib, uni ha-yotga tatbiq qilish orgali erishgan.

Ikkinchidan, o'quvchilar o'tasida tenglik va adaptotga e'tibor qaratib, barcha o'quvchining iqtidori o'ziga yarasha ekanligini his qilgan holda ularni kamsitishga yo'li qo'ymaslik kerak. Chunki birining qo'lidan robot yasash kelsa, ikkinchisi zo'r agronom bo'lishi mumkin. Shu tufayli kasbni ham, insonlarni ham tabaqalash-tirishga imkon qadar yo'li qo'yilmagani ma'qul. Zero, jamiyatga chorvador ham, injener ham, dasturchi ham kerak.

Bundan tashqari, zamonaiviy ilg'or innovatsion texnologiyalarni import emas, balki o'zimizda yaratish va eksport qilish asosiy vazifa qilib yo'lganlari ma'qul. Bu esa mamlakatimiz yoshlari zimmasiga yangi texnologiyalarni yaratishga mas'uliyat bilan yonda-shishni yuklash orgali amalga oshiriladi.

Taraqqiyot kushandas bo'lgan korrupsiyaga yo'li qo'ymaslik uchun yoshlarimiz o'quvchiligi paytidayoq "Halollik vaksinasi" bilan emlansin. Ya'ni, harom-xarish yo'llar bilan mol-dunyo to'plab, taraqqiyotga to'siq bo'lib yashagandan ko'ra, halol-pokiza yashash afzalligini yoshlar ongiqa singdirish kerak.

Shuningdek, milliy genofondni mustahkamlashirish maqsadida homilador ayollar va bolalarining ovqatlanish rassioni bo'yicha amaldagi me'yorni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish lozim. Bu o'z navbatida, har bir insonni individual minimal iste'mol savatchasi darajasida ta'minlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga taqozga etadi.

Mamlakatimizda inson kapitalini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi - xalqimiz genofondini saqlash bilan birga, yetuk zamonaiviy innovatsion g'oyalari bilan qurollangan kadrlar avlodini shakllantirishdan iborat. Buning uchun intellektual tibbiyot va intellektual

ta'lim xizmatlarini joriy qilish natijasida har bir kishining umirini uzaytirish va aqil-zakovatni o'strish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Rivojlangan mamlakatlardagi kabi bizda ham ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritish, 3 yoshli bolaning 22 yoshgacha bo'lgan davridagi ta'lim-tarbiysi uchun sarmoya sarflashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki rivojlangan mamlakatlarda ana shunday sarmoya 15-17 barobar miqdorda foyda keltirmoqda. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Bunga asosiy sabablardan biri bolalarimiz ota-onasida va maktab tarbiyasidan ko'ra telefon bilan bog'lanib, asosiy vaqtini u bilan o'tkazmoqda. Oqibatda miyadagi asosiy zaxiralar keraksiz axborotlar bilan to'lib bormoqda. Bu holat ildizlarini puxta tahlil qilib, tezroq o'nglanish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Shu o'rinda mamlakatimiz olimpiyatlari va salohiyatlari imkoniyatlaridan samarali foydalishni yo'llarini izlashimiz shart. Insonning aqliy yuksalishi kitob bilan bir qatorda ustozlar iibrati bilan ham amalga oshadi.

Yurtimiz taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanishning asosiy maqsadi - adaptotga jamiyatni shakllantirib, aholining farovonligini oshirish va uning roziligidiga erishish. Bunda har bir shaxs manfaati davlat manfaati bilan borchalar turishi kerak.

Yana bir gap, "Dual ta'lim" tizimini jadal rivojlantirish zarur. Ushbu ta'limda nazariya bilan amaliyotning uyg'unligi ta'minla-nib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda qo'l keladi. Buning uchun oliy o'quv yurtlari qoshida yo'nalishlarga mos korxonalar va tashkilotlarda tashkil qilinsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Buning natijasida talabalar nazariya bilan birga amaliyotni ham o'ganib boradi. Mutaxassislik yo'nalishi kafedralari bevosita sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish korxonalarida y